

BO'LAJAK O'QITUVCHI O'Z NUTQINI TAKOMILLASHTIRIB BORISHI UCHUN AMAL QILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR

Sodiqov Hamid Maxmudovich

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: hamid.sodiqov79@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirib borishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutq, diqqat, xususiyat, tajriba, o'qituvchi, faoliyat, tovush, diapozon, tembr, texnika, qobiliyat.

Аннотация: В этой статье описаны аспекты, на которых будущий учитель должен сосредоточить внимание при улучшении своей речи.

Ключевые слова: речь, внимание, особенность, опыт, учитель, деятельность, звук, диапозон, тембр, техника, умение.

Abstract: This article describes the aspects that a future teacher should focus on when improving his speech.

Key word: speech, attention, feature, experience, teacher, activity, sound, range, timbre, technique, skill.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan jarayon. Shuning uchun avvalo o'qituvchi nutq texnikasini to'g'ri egallashi lozim. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqining ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi lozim.

O'quvchilar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. Bir ohangdag'i nutq-tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi o'qituvchining baland ovozidan o'quvchi

o‘zini aldanayotgandek his etadi. Bu o‘qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg‘otadi.

O‘quvchi hayoti davomida o‘qituvchisining nutqiy xususiyatlarini, o‘quvchilarga murojaat qilish, savollarga aniq va mukammal javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun, o‘qituvchining nutqi ma’lum talablarga javob berishi maqsadga muvofikdir.

Nutq texnikasi malakalari va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini takomillashtirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyanı rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bunday faoliyatda *tovush*, *diapazon*, *tembr*, *diksiya*, *artikulyatsiya*, *ritmika*, *to‘g‘ri nafas olish* muhim rol o‘ynaydi.

Tovush. Ba’zi o‘qituvchilarga tovush tug‘ma qobiliyat sifatida berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. O‘qituvchi o‘z tovushini kuchli, egiluvchan, emotsional ta’sirchan qila olishi mumkin.

Diapazon - tovushning hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir xil ohangda zerikarli bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining bir ohangda gapirishi, tinglovchilar tomonidan axborotni idrok qilishni pasaytiradi va ularni zeriktirishi mumkin.

Tembr – tovushning rang-barangligi, yorqinligi hamda yumshoqligini namoyon qilib, shu bilan birga o‘qituvchi nutqining chiroyli, mayin, jozibali, o‘ziga hosligini ta’minlaydi. Ba’zilar tovush va uning tembri tug‘ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to‘liq qayta qurish mumkinligini isbotlab bergen.

Materialning murakkab qismini o‘qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Mavzuga oid qoidalar va qonuniyatlar aytilganda, xulosa qilinganda nutq sekinlashadi.

Diksiya - aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o‘qituvchi uchun professional zarurat bo‘lib, o‘qituvchi nutqini talabalar tomonidan to‘g‘ri

tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuzning aniqligi aytileyotgan so'z, bo'g'in va tovushlarning qat'iy aniqligidir. U nutq apparati barcha a'zolarini (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari) birgalikda ishlashiga bog'likdir. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularni mashq qildirish muhim ahamiyatga egadir.

Artikulyatsiya – aniq talaffuz qilishni takomillashtirish, ya'ni artikulyatsiya – nutq organlarini harakatlantirish orqali vujudga keltiriladi. Artikulyatsiya gimnastikasi ikki turga bo'linadi. Birinchisi nutq apparatining dastlabki mashqlari va ikkinchisi har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatuvchi mashqlar (ifodali o'qish, tez aytishlar).

Ritmika – bu ayrim so'z bo'g'inlarining aytish muddati va to'xtalishi gapirishdagi to'liq davomiylik, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnila ishlatilishini bildiradi. Shu bilan birga nutqni tashkil qilish jarayoni. Bu nutqning muhim elementlaridan biri bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'rniga so'zdan ko'ra kuchli emotsiyal ta'sir qiladi.

Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki «Nutq ohangi» va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatadi. K.S.Stanislavskiy ritmga quyidagicha ta'rif beradi: "Quruq so'z novdan tushayotgan no'xatdek yopirilib chiqadi, ma'noli so'z esa xuddi simob to'ldirilgan sharcha kabi asta-sekin shakllanadi. Berilayotgan bilimlarning qiyin qismini o'qituvchi asta-sekin tushuntiradi va so'ngra yanada tezroq gapirishga o'tishi mumkin".

To'g'ri nafas olish. So'zlayotganda to'g'ri nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish va uning tovlanishi, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, notiqlik san'atini takomillashtirib borish o'qituvchining nutq texnikasini shakllantiruvchi xususiyatlardir. Ovoz o'zgarishi, to'g'ri nafas olish, diksiya, ritmika asosida nutqning ko'nikma va malakalari yig'indisini mukammal rivojlantirish o'qituvchining nutq texnikasida takomillashadi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirishi uchun ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo'naliishlarga doimiy amal qilib borishi lozim:

- o‘zbek adabiy tili qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi;
- o‘z-o‘zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilishi;
- o‘zining nutqiy madaniyatini doimiy rivojlantirib borishi;
- nutqiy muloqotnint barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o‘ziga sharoit yaratishi.

O‘z-o‘zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘z nutqiy faoliyatini kuzatishi, u jonli, xilma-xil, hissiy bo‘yoqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim.

Nutqingizni tayyorlash va mashq qilish jarayonida o‘zingiz mustaqil ravishda quyidagi savollarga javob toping:

Tinglovchilarda qanday fikr uyg‘otmoqchiman?

Auditoriyada ijobiy muhitni qanday kayfiyat asosida yaratmoqchiman?

Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritmnini talab etadi?

Har qanday ta’lim-tarbiyaviy mashg‘ulot oldidan bir necha bor o‘z nutqingizni yozib olib tinglang va xatolaringizni tuzatishga harakat qiling, nutqingizni qaytarib mashq qiling. Nutqingizni rang-barang badiiy-adabiy so‘zlar bilan boyiting. O‘z taassurotlaringizni qo‘sghan holda boyitib, to‘ldirib boring. O‘qituvchi nutqining mukammalligi, tozaligi, ta’sirchanligi bilan o‘quvchilar e’tiborini jalgan qiladi, ular qalbiga yo‘l topadi, hech qanday qiyinchiliklarsiz kasbiy pedagogik faoliyatida duch keladigan barcha ziddiyatlarni bartaraf etadi. Natijada o‘qituvchi pedagogik faoliyatda aslo toliqmaydi, asab tizimi doimo sog‘lom bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat) Darslik. Toshkent 2019. -166 b.
2. Maxmudov N.M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. -Toshkent: 2007.-167 б.
3. Sodiqov H.M. Muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi eng muhim kasbiy quroldir. // Ingliz tilini o‘rganishda innovatsiya va o‘qitish amaliyoti. Xalqaro konferensiya. - Jizzax, 2019. –B. 362-364.

4. Sodiqov H.M., Sodiqova D.R. Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. // Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya "Aktual'nyye vyzovy sovremennoy nauki". -Ukraina, 2017. -B 185-187.
- 5.Sodiqov, H. (2020). Use of mass educational measures in upbringing of harmoniously developed generation. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 6.Sodiqov, H. (2020). The educational significance of hadiths in human spiritual maturity. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 7.Sodiqov, H. (2020). Abu Nasr Faroobi's views on education. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 8.Sodiqov, H. (2020). General pedagogical views of Abu Ali ibn Sina. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 9.Sodiqov, H. (2020). Specific aspects of the organization of independent education. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 10.Sodiqov, H. (2020). DUXOVNO-NRAVSTVENNYE PRINTSIPY HARMONII OBshchESTVA I SEMI. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*, 1-12.
- 11.Sodiqov, H. (2020). The role of toys in shaping the creative thinking of primary school students. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 12.Sodiqov, H. (2020). Family, school cooperation in the upbringing of primary school students. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*.
- 13.Sodiqova, D. (2019). PECULIARITIES OF FORMING CREATIVE ATTITUDE TO THOUGHTS OF STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
- 14.Sodiqova, D. (2020). Buyuk allomalarimiz asarlarida oilada bola tarbiyasining ahamiyati haqida qarashlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
- 15.Sodiqova, D. (2020). Talabalardan ijodiy munosabatlardan ta'fakkurini shakllanishi tushunchalardan foydalaniш. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
- 16.Sodiqov, H. (2020). MEETING OF FUTURE TEACHERS DEVELOPING A CULTURE EFFECTIVE WAYS. *Arxiv Nauchnykh Publikacij JSPI*

- 17.Sodiqov, H. (2020). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE AND SPEECH CULTURE IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 18.Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
- 19.Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
- 20.Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЬУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
- 21.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
- 22.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚҮЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.